

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NUTQ MADANIYATI MASALASI

Muhabbat JUMANYAZOVA

*Urganch davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini prof.v.b., f.f.n.
khiva1970@mail.ru*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806417>

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkit alloma Alisher Navoiyning nutq madaniyati va odobining lisoniy va nolisoniy omillari xususidagi qarashlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati va olobi, lisoniy va nolisoniy omillar, mazmunli nutq, izchillik, mantiqiylik, qisqalik, ta'sirchanlik, chiroylis, chiroyli nutq.

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды великого мыслителя Алишера Навои на языковые и нелингвистические факторы речевой культуры и манеры.

Ключевые слова: культура и манера речи, языковые и неязыковые факторы, содержательная речь, последовательность, логика, краткость, выразительность, красивая речь.

Abstract: This article discusses the views of the great thinker Alisher Navoi on the linguistic and non-linguistic factors of speech culture and manners.

Key words: speech culture and manners, linguistic and non-linguistic factors, meaningful speech, consistency, logic, brevity, impressiveness, beautiful speech.

Mutafakkir alloma Mir Nizomiddin Alisher Navoiy nafaqat o'zbek xalqi, balki butun insoniyatga aloqador mumtoz siymo hisoblanadi. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning asarlari nafaqat badiiy, balki mislsiz ma'naviy hamda lisoniy boylik hamdir. Bu boylikning tarkibiy qismlaridan birini shoir asarlarida uchraydigan nutq madaniyati va odobiga oid qarashlar, talqinlar tashkil qiladi. Tilshunoslikning mustaqil ilmiy yo'nalishi sifatida shakllangan va rivojlanayotgan o'zbek nutq madaniyatining tarixiy ildizlarini aniqlash, tadqiq qilish va ilmiy umumlashtirishda Navoiyning nutq madaniyati va odobining lisoniy va nolisoniy omillari xususidagi qarashlarini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

Navoiy asarlaridagi *fasohat* so'zining ma'nosi *nutq madaniyati*, *til madaniyati* tushunchasiga yaqinlashib kelishi kuzatiladi. "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da *fasohat* so'zi quyidagicha izohlangan: "*fasohat* – so'zning ochiq, ravshan, chiroyli va qoidalarga muvofiq bo'lishi" [4.335.] "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *fasohat* so'zi quyidagicha talqin qilingan: "Chiroyli va yoqimli so'zlash qobiliyati, nutqning aniq va raxonligi." [6. 334.] Alisher Navoiy fasohatli nutq sohiblarini *bayoni sarih*, *fasih lison*, *ilmning fasihrog'i*, *fasih tili bila so'zlovchi* kabi tushunchalar bilan nomlaydi. *Fasohat* so'zining asosiy ma'nolari hozirda *nutq madaniyati* deb yuritilayotgan tushunchaning mundarijasiga to'g'ri keladi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ma'lumki, nutqning sifati, nutq madaniyati talablariga javob berishi notiqning maqsadi, suhbatdoshiga munosabati, tildan foydalana olish malakasi, ongi yondashuviga ham bog'liq. Alisher Navoiy fasohatli nutqni yuzaga keltiruvchi ijobjiy omillar haqida keng fikr yuritgan. Bu omillarni lisoniy va nolisoniy kabi guruhlarga ajratish mumkin. Bular orasida lisoniy omillarga keng o'rinn berilgan. Bular quyidagilar:

1. Nutq mazmunli, ma'noli bo'lishi kerak. Navoiy *daqiq so'zini* "sermazmun, teran ma'noli" ma'nosida qo'llagan: "*Bular ul hazratning daqiq so'zin yo anglamay, yo anglasalar buyurulg'an yo 'sun bila amal qilmay*" [12.39.; 4.474.] *Mazmunlilik* tushunchasini shoir *mazmunluq* so'zi orqali ham ifodalagan: "*Safar azmida musofiridin ayrilur chog'da xayrbod mazmunluq alfozni radif qilib aytqon she'rning matlai furqatnamo kelibdur*" [12.188.; 4.207.] Navoiy nutqning mazmundor, ma'nodor bo'lishiga katta e'tibor berar ekan, bunday til toshni eritadi, deydi.

2. Nutq mufassal bayon qilinmog'i kerak. Navoiy fikrni mufassal, to'liq bayon qilishni *tafsil, vuzuh* so'zlari orqali beradi: "*Sulaymon binni Dovud alayhissalom andin mashhurroqdurkim, ahvoli ko'p sharhqa ehtiyoj bo'lg'ay, ammo juzviy tafsildin chora yo 'qdur*" [10.161.; 5.200.]

Fikrning mukammal, to'liq bayoni uning shakli bo'lgan nutqning shakliga, ifodalanish darajasiga, usuliga bog'liq. Adib *so'z libosi* deganda nutqning mana shu tomonini ko'zda tutadi:

So 'zlar libosini etmayin oro,
Xo 'blar uylakim xazu xoro. [15.32.]

3. Nutqning bayoni izchil bo'lmog'i, fikrlar bir-birini to'ldirib, aniqlab bormog'i lozim.

Navoiy nutqning izchil, mantiqiy bo'lishiga katta e'tibor qilgan. Navoiy Mehinbonu tomonidan Farhod sharafiga uyushtirilgan ziyofatda ishtirok etayotgan o'nta kanizaklarning nutqi haqida:

Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay'at ruqumida qalamkash, – deya ularni madh etadi [8. 272.]

4. Nutq qisqa va ravshan bayonli bo'lmog'i lozim. Navoiy nutq qisqa, ixcham, ammo mazmunli, bayoni aniq, tushunarli, mujmal bo'lmasligi lozim deb hisoblagan: "*Va avsat so'z jamoati fusahoyi balog'atshior va bulag'oyi fasohatdisor iborati farxunda ishoratlaridurkim*" [14.126. 5.33.]

5. Nutq rang-barang, ifodalarga boy bo'lishi kerak. Navoiy ushbu tushunchani *balog'atko 'sh* so'zi orqali izhor qiladi:

Demonkim, so'z ayturg'a balog'atko 'sh o'l,
Nafsingga saloh istar esang xomo 'sh o'l. [14.158.; 5. 208.]

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Navoiyning yozishicha, nutq ham mazmun, ham shakl jihatidan rang- barang bo‘lishi lozim:

*Barchasining nuktasi rangin erur,
Nazmlari dilkashu shirin erur. [9. 66.]*

6. Tilni, uning boy imkoniyatlarini bilish va egallash lozim. Alisher Navoiy ba’zi shaxslarning nutqiga baho berar ekan, ularning lisoniy mahoratini tilning boyliklarini qanchalik egallagani, undan qay darajada foydalanishiga qarab belgilaydi: “*Sahl b Abdulloh Tustariy q.s. ...Kuniyati Abu Muhammad. Ahvolda qaviy va so‘zda za ‘if debdurlar*” (NM, 54-b). Shoир bunday baholarni berishda *biyik kalom, buyuk kalom, yaxshi tilde adosi bor, furun va nuktada barkamol, nadim sheva, shiringo* ‘y kabi ta’riflardan foydalangan.

7. Tildan nutqqa mos vositalarni tanlay olish va ulardan til qoidalariga mos foydalanish kerak. Alisher Navoiy tilni yaxshi egallagan kishi nutq mazmuniga mos keladigan fikrni to‘g‘ri ifodalay oladigan bo‘lishi va til vositalarining munosibini tanlay olishi hamda ishlatishi, bunda til qoidalari, me’yorlariga amal qilishi lozim, deb hisoblaydi:

*Ul biri ul fazl-u fasohat bila,
Bu biri bu fe'l-u qabohat bila. [9.219.; 5.335.]*

8. Nutq ta’sirchan kuchga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun so‘zlar chin yurakdan chiqmog‘i lozim:

*“... bu kimiyo asar so‘zlar ta’sirig ‘a
Tengri inoyatidin arjumand” [13. 12.; 4.140.].*

Navoiyning qarashlariga ko‘ra, nutq madaniyati va odobining nolisoniy omillari o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Nutq maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. Hozirgi vaqtida nutq madaniyati va adabiy me’yor haqida gap yuritilgan tadqiqotlarda nutq madaniyatining asosiy shartlaridan biri *nutqning maqsadga muvofiqligi* deb belgilanadi. Shoирning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ham bu boradagi fikrlarni uchratish mumkin: “*Abubakr Saydaloni q.t.s. ... Hamul debdurki, so‘zni hojat qadari bila ayting. Har ne hojatdin ortuqdur, andin ilik torting...*” [13. 129.] Bir o‘rinda Navoiy o‘z nutqi haqida gapirib, bordi-yu nutqim (so‘zim) xo‘b, yaxshi, maqbul bo‘lmasa, yomon gapirgan bo‘lsam, Alloh kechirsin deydi:

*So ‘zum xo ‘b ersa Rahmat siyla hamroh,
Vagar dedim yomon: astag‘firulloh. [8.477.]*

2. Nutq e’tiborga loyiq, tinglovchining diqqatini tortadigan bo‘lmog‘i kerak. Mana shu talab Navoiy asarlarida *guharrezliq* so‘zi orqali ifodalangan: “*Va guzorish debochasini Skandari davron sanosida bir necha guharrezliq bila murassa’ etmak va*

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shahzoda madhini nasoyih bila ixtisor qilmoq... ” [15.543.] Navoiy ta’kidlashicha, kishining nutqi e’tiborga loyiq bo‘lmasa, unga eldoshlari qiziqmasa, diqqat qilmasa, bu – notiqning elda yo‘q, unut bo‘lganidir:

Elda kishi yo‘q demak o‘ldi so‘zung,
Doxil emassenmu bu elga o‘zung? [9.109.]

3. Nutq samimiyl, dilkash, yurakdan chiqadigan bo‘lmog‘i kerak. Navoiy insonning so‘zi uning ichidagini ifodalashi, uning kimligini nutqi aytib turishini ta’kidlaydi:

O‘rtadi chun bo‘yla zavoli ichin,
Bu so‘z ila ayladi xoli ichin. [9. 255.]

4. So‘zlovchi tinglovchining kimligi va uning saviyasini, ehtiyojini hisobga olmog‘i lozim. Alisher Navoiy so‘zlovchining nutqi tinglovchiga qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydigan omillardan biri sifatida suhbatdoshning, ya’ni tinglovchining kimligini hisobga olishi, deb hisoblaydi:

Har biriga o‘zgacha so‘z muddao,
O‘zgacha so‘z demaki, yuz muddao. [9. 334.]

5. Nutq chiroyli, nafosatli va latif bo‘lishi lozim. Adib bunday talab va me’yorni ko‘proq voizlar nutqida kuzatadi. Masalan: “*Mavlono Muhammad Omiliy – zarifvash va noziksheva kishi erdi*” [12.54.] Navoiyning yozishicha, insonning go‘zalligi, barkamolligi uning tilida, nutqida o‘z aksini topadi.

6. So‘zlovchi chin, rost so‘zlamog‘i, rostgo‘y bo‘lmog‘i lozim. Ushbu xususiyatlarni Navoiy quyidagi tushunchalar orqali talqin qiladi:

Sidq – to‘g‘riso‘zlik, rostgo‘ylik ma’nosida:

Xoja minbarning tubin aylab maqom,
Sidq ila omin der erdi bardavom. [10. 191.; 5.73.]

Yakro ‘y – to‘g‘riso‘z, rostgo‘y: “*Xoja Husayn Kirangiy o‘zi mujid va sult va yakro ‘y kishidur*” [12. 138.; 5. 590.]

7. Notiq suhbatdosh (tinglovchi)ga nisbatan shirin tilli, xushmuomala bo‘lmog‘i kerak. Shirin so‘zlik va xushmuomala kabi tushunchalar shoir asarlarida quyidagi lisoniy birliklar orqali ifodalangan: *La’li go‘yo – shirin so‘zli og‘iz:*

O‘luklar jon berur chin nukta aytur la’li go‘yosi,
Masihi tilidin go‘yo chiqar jonbaxsh anfosi. [7. 403.; 5. 432.]

Navoiy ushbu tushunchani, shuningdek, *dilbandlig‘, shirinkorlig‘, shirinkalom, shirintakallum, xushlahja, xushgo‘y, xushgo‘yliq* so‘zlari orqali ham ifodalangan.

Yuqorida keltirilganlar buyuk ajdodimizning til va nutqqa qanday munosabatda bo‘lgani, bunda qanday tamoyillarga amal qilganligini o‘zida aks ettiradi. Ulardan hozirgi globallashuv davrida ham kishilarning nutq madaniyatini va odobini kamol

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

toptirishda dasturamal sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'kidlash joizki, Navoiyning nutq madaniyatiga oid mulohazalarini o'rganish asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar o'zbek nutqi madaniyatining ilmiy asoslarini, tamoyillarini belgilashda ham muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik.- Toshkent: Fan, 1983-1985.
2. Islamov O'. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati // Til va adabiyot ta'limi. –Toshkent, 2008. –№3. –B. 81-85.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.– Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Navoiy asarlari izohli lug'ati – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972.
5. Navoiy asarlari lug'ati. T.1-3. – Toshkent: Fan, 1983-1985.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.4. – Toshkent: O'zME, 2008.

Shartli qisqartmalar:

1. BV – Badoe' ul-vasat / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 1990. T.5.
2. FSh – Farhod va Shirin / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 1991. T.8.
3. HA – Hayrat ul-abrор / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 1991. T.7.
4. LT – Lison ut-tayr / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 1996. T.12.
5. ML – Muhokamat ul-lug'atayn / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 2000. T.16.
6. MN – Majolis un-nafois / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 1997. T.13.
7. NM – Nasoyim ul – muhabbat / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 2001. T.17.
8. NJ – Nazm ul – javohir / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 1999. T.5.
9. SS – Sab'ai Sayyor / A.Navoiy. MAT. – Toshkent: Fan, 1992. T.10.